

## THE ROLE OF ART AND CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF A RENEWED UZBEKISTAN

**Egamberdiyeva Dilafruzkhan Dilshodjon's Qizi**

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article discusses the role of art and culture in the development of a renewed Uzbekistan, what changes, decrees and decisions have been made since independence, and the opportunities we have given to young people.

**Keywords:** Culture, art, decrees and decisions, involved

## **YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA SAN'AT VA MADANIYATNING O'RNI**

**Egamberdiyeva Dilafruzxon Dilshodjon qizi**

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutining Farg'on'a mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida san'at va madaniyatning o'rni qanchalik muhimligi, mustaqillikka erishganimizdan so'ng qanday o'zgartirishlar, farmon va qarorlar qabul qilingani va biz yoshlarga berilgan imkoniyatlar to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, san'at, farmon, qarorlar, daxldor

Darhaqiqat insoniyat ma'naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san'atsiz kechmaydi. Mamlakatimizda ham bu soha turli sabablar bilan yuksalish vadepsinish davrini boshidan o'tkazib keldi. Lekin so'nggi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Eng quvonarлиsi, butun yer kurrasiga kelgan balopandemiya sharoitida ham yurtimizda madaniyat va san'atga bo'lgan e'tibordan chetda qolmadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur soha vakillarining, keng ko'lamdag'i san'at ixlosmandlarining uzoq kutilgan orzulari, istaklarini ro'yobga chiqarishga katta imkoniyat yaratdi. Xo'sh, sohadagi islohotlar, farmon va qarorlarning ahamiyati, ijrosi qanday rejallarda, amalga oshirilayotgan ishlarda namoyon bo'lmoqda? O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov shunday fikrlashdi: "Har bir insonda tafakkur, fikrlash erkin, mustaqil bo'lishi kerak. Ommaviy tarzda bir xil fikrlash halokatli. Bunda ijod ham rivojlanish ham bo'lmaydi. Ana shu ma'noda o'ylamasdan taqlid qilish milliy qiyofani, o'zlikni unutishga olib keladi. Ayni paytda dunyo adabiyoti, madaniyat va san'atidagi ilg'or, umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan g'oyalarni o'rganish, o'zlashtirish talab etiladi. Bugun O'zbekistonda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapdi. Negaki madaniyat va san'at millat taraqqiyoti yo'lidagi nihoyatda ahamiyathi va o'ta nozik soha. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan tilagiga ko'chadigan tuyg'ularni tarbiyalaydi"

O'zbekistonning madaniyati mangulikka daxldor, degan asosli jumlada biz madaniy qadriyatlar va madaniy meros obyektlarining ulug'vorligini, avlodlarimiz tarixini eslatuvchi asosiy manba ekanligini tushunamiz. Ushbu qadriyatlarimiz va madaniy meros obyektlarimiz yoshlar tarbiyasini mukammal rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'zgartirib globallashuv zamonida tubanlikka tushib qolmasliklarida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz O'zbekistonda keng ko'lami demokratik islohotlar asosida yangi Uyg'onish davri – uchinchi Renesansning poydevorini shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishyabdi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish yangi

O'zbekistonning yangi tarixini yaratish moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovation rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu qaror bo'yicha ko'plab vazifalar berildi: xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiysi va uni amalga oshrish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Madaniyat va san'at tashkilotlarining "do'stlar klublari" faoliyatini yo'lga qo'yish orqali ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha mutlaqo yangicha samarali tizim yaratildi.

Madaniy meros obyektlari va san'at ashyolarini restavratsiya qilish bo'yicha milliy maktab, xalq cholg'ulari, milliy raqs, maqom yo'nalishlarida respublika ko'rik tanlovlari qayta tiklandi. Mamlakatimizda har yili o'tkaziladigan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshilik san'ati festivali, "Sharq taronalar" xalqaro musiqa festivali, "Buyuk ipak yo'li" xalqaro folklor san'ati festivali hamda "Raqs sehri" xalqaro festivali tashkil etilib, o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'analarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi.

**Madaniyat vazirligi tizimida:** Madaniyat vazirligi markaziy apparati tuzilmasida madaniyat muassasalari va havaskorlik san'atini rivojlantirish sohada axborot texnologiyalarini keng joriy etish va raqamlashtirish masalalariga mas'ul vazir o'rribosari joriy etilsin;

O'zbekiston davlat konservatoriyasining "O'zbek maqom san'ati fakulteti" hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxasisliklari negizida maqom ijrochiligi baxshilik va katta ashula yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi- Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilsin;

O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Iqtidorli bolalar akademik litseyi hamda Toshkent ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi negizida Madaniyat vazirligi tizimida Respublika musiqa va san'at kolleji tashkil etilishi to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvda shunday ta'kidlagan edi: "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak. Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat- bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyoafasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim"

Aholi xususan yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqolikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligi qayd etildi. Mamlakatimizni yanada rivojlantirish va bugungi kunda madaniyat va san'atning hayotimizdagи o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida: Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish, muzeylar va teatrler faoliyatini qayta ishlab chiqish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash, moddiy madaniy merosimizni muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish; madaniyat va san'at muassasalari, teatrler, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati, moddiy texnik bazasi holatini o'rganish, ularni ta'mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta'minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun shart-sharoitlar yaratish; O'zbek milliy raqs san'atini va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga ulkan hissalarini qo'shgan san'atkorlar va jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik tanlovlarda qatnashgan yoshlarni

moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash; yoshlarni san'at maskanlariga, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish; madaniyat va san'at yo'nalişidagi ta'lif muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislariga bo'lgan talab va ehtiyojlarni o'rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, dunyoning mashhur bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish; O'zbekistonning yuksak madaniyati va san'atini xalqaro maydonda yanada keng targ'ib etish, xalqaro ko'rik tanlov va festivallarda yurtimiz bayrog'ini balandlarga ko'tarish, Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va Moliya vazirligi 2018/2019 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat konservatoriyasida madaniyat va san'at yo'nalişidagi oliy va o'rta maxsus ta'lif muassasalari, mактабдан ташқари та'lif muassasalari uchun malakali musiqa pedagoglarini tayyorlash yuzasidan chora tadbirlar amalga oshirilsin. O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgustda mamlakatimiz ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdilar. Bu uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyotimiz va san'atimizni rivojlantirish uchun qanday masalalar ko'rildi va ularni hal etish yo'llari, bu ishlarni amalga oshirishimiz uchun bizning oldimizda qanday vazifalar borligi to'g'risida fikr almashildi. Bu ochiq muloqotda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari rahbari, Bosh vazir, Prezidentning Davlat maslahatchilari, Vazirlar mahkamasi komplekslari, vazirlik va idoralar, ijodiy uyushmalar, madaniyat muassasalari, teatr va muzeylar rahbarlari, san'at va madaniyat sohasining atoqli namoyondalari va jurnalistlar qatnashdilar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ma'ruza qildi: "Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha ulkan ishlarni qilinmoqda. Xalqimizning boy madaniy merosini tiklash va o'rganish maqsadida bir qator yirik loyihibarlar amalga oshirilmoqda. Poytaxtimizda O'zbekistondagi Islom madaniyati markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqotnmarkazi barpo etilmoqda. O'zbekistonga oid xorijidagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi, O'zbekistonning yangi tarixi markazi faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilib, hududlarda ulug' san'atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil qilinmoqda"

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farmoniga ko'ra bundan buyon har yili 15-aprel sanasi "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni" sifatida nishonlanadi.

**XULOSA QILIB AYTGANDA**, biz mustaqilikka erishganimizdan buyon juda katta katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Har bir kasb va har bir soha bo'yicha o'zgartirishlar, farmonlar va qarorlar e'lon qilindi. Mustaqilik yillarda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyorilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buyuk ajdodimiz **MUHAMMAD XORAZMIY** ning bir hikmati bor: "**So'z gul- ish meva**" Biz o'z kasbimizga qanchalik pishiq-puxta bo'lsak, ishimiz ham o'ylagan rejalarimiz ham albatta yaxshi samara beradi. Ulug' allomalarimiz o'zlarining olamshumul kashfiyotlari va ixtiolarini bizdek paytalarida amalga oshirishgan. Biz buyuk ajdodlarimizdan ibrat olib, hayotda mo'jizalar yaratishga va o'z kasbimizning mohir ustasi bo'lib yetishishga astoydil intilishimiz lozim. Shu o'rinda 1-prezidentimiz **ISLOM KARIMOV** ning quyidagi so'zları yodimizga tushadi: "**Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart**" Birinchi prezidentimiz ham biz yoshlarga qo'llaridan kelgancha shart-sharoitlarni yaratib berishgan. Ilroyim ruhlari shod bo'lsin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shunday so'zları bor: "O'zbekiston adabiyot va san'at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat va ma'rifat biznesga aylanmasligi kerak va biz bunga hech qachon yo'l qo'yamaymiz" deb ta'kidlaydi. "Bizning havas qilsa arziyidigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziyidigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziyidigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa havas qilsa arziyidigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi"

Biz yoshlari qo‘limizdan kelgancha bor harakatlarimizni ishga solgan holda vatanimizga xizmat qilib va vatanimiz bayrog‘ini baland va yuksak cho‘qqilarga olib chiqamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6000-son 26.05.2020 yil.
2. “Islom Karimov – mustaqil O‘zbekiston davlatining asoschisi” mavzusidagi amaliy anjuman materiallari to‘plami. Samarcand 2018-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarori O‘zbekiston respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-3920-son 26.08.2018 yil.
4. 2017-2021-yillarda madaniyat va san’atni rivojlantirish dasturi. 31.05.2017. daryo.uz
5. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. International Journal of Culture and Modernity, 10, 43-51.
6. Юлдашева, С. Н. (2020). СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АУДИТОРИИ. ТИПОЛОГИЯ ЧИТАТЕЛЕЙ. Oriental Art and Culture, (V).
7. Sohibaxon, Y. (2021). О’ЗБЕКИСТОНДА КУТУБХОНАЧИЛИК SOHASINING RIVOJI. Oriental Art and Culture, (7), 260-268.
8. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2925-2927.
9. Юлдашева, С. (2019). Китоб мутолаасини шакиллантиришда кутубхоначилик фаолияти. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 59-62.
10. Yuldasheva, S., & Madumarova, M. (2020). TASKS AND CONTENT OF BIBLIOGRAPHIC WORKS. European Journal of Arts, (1), 148-152.
11. Аскарова, М. (2020). ЎЗБЕК АДАБИЙ ТАНҚИДИ ТАРАҚҚИЁТИ. Oriental Art and Culture, (V).
12. Мирзаева, Н., & Аскарова, М. (2020). ЧЎЛПОН ИЖОДИДА МИЛЛИЙ УЙГОНИШ ҲАРАКАТИ. Oriental Art and Culture, (V).
13. Аскарова, М. (2021). Адабий жараённинг зукко тадқиқотчиси. Oriental Art and Culture, (7), 209-216.
14. Askarova, M. (2020). Homil yakubov’s views on navoi studies. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 788-792.
15. Askarova, M. (2021). Homil Yakubov’s views on Oybek lyrics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2412-2415.
16. Nurxon, I., & Habibjonov, I. (2021). KITOB VA KITO BXONLIK-INSON MANAVIYATINING KOZGUSI. Oriental Art and Culture, (6).
17. ўғли Ҳабибжонов, И. Т. (2020). ЎЗБЕК СОЛИҚ ТЕРМИНЛАРИНИНГ АФФИКСАЦИЯ УСУЛИ БИЛАН ЯСАЛИШИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 200-206.
18. Ҳабибжонов, И. Т. Ў. (2021). СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА ДУБЛЕТЛИК ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 842-846.
19. Ismoilova, N., & Habibjonov, I. (2021). Kitob va kitobxonlik-inson manaviyatining kozgusi. Oriental art and culture, 2(1), 159-166.
20. Habibjonov, I. (2020). Syntactic design of uzbek tax and customs terminology. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2910-2915.
21. Oglu, H. I. T. (2020). Formation of uzbek tax and customs terms (on the example of materials on the history of language). ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 1308-1313.
22. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2925-2927.
23. Рўзиева, Г., & Ҳабибжонов, И. (2021). САДР ЗИЁ КУТУБХОНАСИ. Oriental Art and Culture, (6).

24. Normatova, M., & Ikromjon, X. (2021). "QUTADG'U BILIG" IKKI JAHONNI TUTISHGA OCHUVCHI YO'L. *Oriental Art and Culture*, (6).
25. Ўғли, X. И. Т. (2020). ТИЛШУНОСЛИҚДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИННИГ ТАДҚИҚИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
26. Solieva, Н. О. (2021). THE ROLE OF READING IN THE FORMATION OF A PERSON'S OPERATIVE MEMORY AND MENTAL MATURITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 178-185.
27. Солиева, X. О. (2018). ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО НА МЕДИЦИНСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-6), 56-60.
28. Омоновна, С. X. (2018). «Бебош бола» синдроми ёхуд нега болалар асабийлашади?. *Современное образование* (Узбекистан), (11).
29. Омоновна, С. X. (2018). Ўқувчилар тарбиясини шакллантиришда ота-оналарга педагогик билим бериш тизимининг аҳамияти. *Современное образование* (Узбекистан), (5).
30. Омоновна, С. X. (2019). Агар бола сизни «Эшитмаса»... *Современное образование* (Узбекистан), (4 (77)), 58-63.
31. Омоновна, X. С. (2020). ТАРИХИЙ ҚҮЛЁЗМА МАНБАЛАРНИ КОНСЕРВАЦИЯ-РЕСТАВРАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ ХУСУСИДА. *Oriental Art and Culture*, (V).
32. Омоновна, С. X. (2021). Глобаллашув жараёнида ахборот оқимининг ёшлар маънавиятига таъсири хусусида. *Oriental Art and Culture*, (7), 217-224.
33. Омоновна, С. X. (2021). Маданият ва маънавият масалаларида тарихий илдизлар излари. *Oriental Art and Culture*, (7), 244-253.
34. Парпиев, А. (2021). ЖАДИДЧИ ОБИДЖОН МАҲМУДОВНИНГ ФАОЛИЯТИДАГИ ЯНГИ ҚИРРАЛАР. *Oriental Art and Culture*, (6).